

## ISLOM MOLIYASI

**Qosimov Ilhomjon Husanboy o‘g‘li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islomiy moliya tushunchasi, uning oddiy moliya tizimidan farqlari va afzalliklari bayon qilingan. Dunyo islomiy moliya bozori holati, unda islom banklarining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Maqolani o‘qish davomida o‘zingizga kerakli va sizni qiziqtirgan ko‘plab savollarga javob topasiz degan umiddamiz.

**Kalit so‘zlar:** Shariat, islom moliyasi, fiqh al - Muamalat, sudxo‘rlik, ribo, tijoriy muamalat, notijoriy muamalat, murobaha, mushoraka, salaam, istisna, ijara, sukuk, mudoraba, zakot, sadaqa, ,moliyaviy kapitalizm.

**Abstract:** This article describes the concept of Islamic finance, its differences and advantages from a simple financial system. The state of the global Islamic financial market, in which the role of Islamic banks is analyzed. We hope that you will find answers to many questions you need and are interested in while reading the article.

**Keywords:** Sharia, Islamic finance, fiqh al-muamalat, usury ,commercial issue, non-commercial issue, murobaha, musharaka, salam, exclusion, rent, sukuk, mudoraba, zakat, sadaka, ,financial capitalism.

**Аннотация:** В данной статье описывается концепция исламских финансов, их отличия и преимущества от традиционной финансовой системы. Анализируется состояние мирового исламского финансового рынка, роль исламских банков на нем. Надеемся, что во время прочтения статьи вы найдете ответы на многие нужные и интересующие вас вопросы.

**Ключевые слова:** шариат, исламские финансы, фикх аль-муалат, ростовщичество, ростовщичество, коммерческий муамалат, некоммерческий муалат, мурабаха, муширака, салам, исключение, рента, сукук, мудараба, закят, благотворительность, финансовый капитализм.

## KIRISH

Jadal iqtisodiy o‘zgarishlar va moliyaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadigan islomiy moliya fenomeni axloqiy mustahkamlik hamda global ahamiyatga ega bo‘lgan tizim sifatida yuksaldi. Shariat qonunlari tamoyillariga asoslangan islom moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiyadolat va barqarorlik bilan bog’laydigan muqobil asosni taqdim etadi. Musulmonlar ko‘p bo‘lgan davlatlar bilan chegaralangan hududlarda oddiy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o‘tuvchi dinamik va ko‘p qirrali global sanoatga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu maqolada biz islomiy moliyanı zamonaviy moliyaning birinchi qatoriga olib chiqqan murakkab va ko‘p qirrali rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama tadqiq qilishga harakat qilamiz va bu yo‘lda an'anaviy bank, investitsiya va iqtisodiy tizim tushunchalarini qayta ko‘rib chiqamiz

Dunyoda ikki miliarddan ortiq musulmonlar yashaydi va ular uchun foizlardan foydalanish mumkin emas. Lekin, hozirgi dunyomizda insonning e’tiqodi uni moliya xizmatlaridan foydalanishdan to’sa olmaydi. Kimdir an’anaviy kredit olishni istamasa, u inson uchun dunyoning ko‘p mamlakatlarida muqobil variantlar taklif etiladi. Sababi, hamma teng imkoniyatlardan foydalanishi kerak (demokratiya tamoyili) va jamiyatda paydo bo‘ladigan bunday imkoniyatlar inklyuziv rivojlanish, ya’ni jamiyat a’zolari o‘rtasidaadolat bilan taqsimlangan va barcha uchun teng imkoniyatlar beruvchi iqtisodiy rivojlanishga yo‘l ochadi. Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o‘z ichiga oladi. Islom moliyasi va bankining umumiy amaliyotlari islom dinining o‘rnatalishi bilan birga paydo bo‘ldi. Islom iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo‘lgan islomiy moliya tizimi haqida fikr yuritilar ekan, so‘z an’anaviy nuqtainazardagi moliya tizimi haqida emas, balki islomiy moliyaviy muassasa va vositalarning uyg’unligi talqinidagi tizim haqida borayotganini nazarda tutish lozim bo‘ladi. Islom moliyasi tizimi — bu pul mablag‘laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismidir. Masalan, Islom dinida qarz berish yoki olish evaziga foyda ko‘rish taqiqlangan, barcha moliyaviy jarayonlar esa haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo‘lishi kerak. Odamga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan sohalarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi — masalan, qimor o‘yinlari, alkogol, tamaki mahsulotlari va boshqalar. Islom moliyasi tizimning ijtimoiy mas’uliyatli maqsadlari ba’zi taqiqlar va rag’batlantirishlarga asoslanadi. Qur’oni karimda belgilanganidek, riboni (foiz) harom qilish va savdoga ruxsat berish: “Alloh savdodan foydani halol qildi va riboni harom qildi”, deyiladi. qo’llab-quvvatlanadigan biznes va operatsiyalar. Bu shuni anglatadiki, barcha moliyaviy operatsiyalar haqiqiy bitim yoki tovarlar, xizmatlar yoki imtiyozlarni sotishni ifodalashi kerak.. Ribo (foiz)- qarzdordan mukofot sifatida olinadigan o‘sishdir. Riba, islomda foiz usuli bilan birga qabul qilinadigan moliyaviy operatsiyalar va muomalalarda o‘zgaruvchanlikni ifodalovchi bir moliyaviy konseptdir. Islomda riba, moliyaning boshqa insonlarga qarz berish yoki qarz olish paytida moliyaning o‘sishiga sabab bo‘lgan daromadni qonun vaadolatga mos kelmaydigan shaklda olish va berishni ifodalaydi. Islomda riba, insonlar orasidaadolatsizlik va iqtisodiy tartibsizlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy amalga oshirishning bir xil shakli sifatida qaralgan.

Riboning mohiyatini iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali yana ham aniqroq tushunish mumkin. Qo‘sishimcha qiymat – sotib olingan mahsulot qiymati (ya’ni har bir ishlab chiqaruchi (firma) boshqasidan sotib olingan tovarning qiymati) va uni sotishdan kelib tushgan umumiy tushum o‘rtasidagi farqdir. Pulga doir qo‘sishimcha qiymat sof moliyaviy bitimlar bilan bog’liq. Pulga doir qo‘sishimcha qiymat sof moliyaviy bitimlar bilan bog’liq.

Islom yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tartiblarni taklif etadi va inson hayotining barcha jabhalarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (muomala) uchun qoidalar majmuiga rioya etishga amr qiladi. Faqat so‘nggi bir necha o‘n yillikda ushbu moliyaviy va iqtisodiy nizom hamda me’yorlarni zamonaviy tahliliy atamalar nuqtai nazaridan izohlash uchun jiddiy sa’y-harakatlar amalga oshirilganiga qaramay va ko‘plab tadqiqotlar chop etilgan bo‘lsa-da, baribir «islomiy moliya» yoki «islomiy iqtisodiyot» singari «islomiy» atama

qo’shilgan turli ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq ta’rifni qo’llash yuzasidan ayrim chalkashliklar saqlanib turibdi. Mana shunday tizimning turli jabhalarini bir butun sifatida emas, balki alohida ko‘ribchiqish tendensiyasi buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR.**

Islomiy moliya islomning iqtisodiy tamoyillari va foizsiz moliyalashtirishga asoslangan tizimdir. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari manfaatdorlik, halol va harom chegaralariga riosa qilish, tavakkalchilikni taqsimlash, adolat, shaffoflik va ijtimoiy mas’uliyat kabi elementlarni o’z ichiga oladi. Islomiy moliyada foizlar nohaq daromad sifatida ko‘riladi va iqtisodiy adolatga putur etkazadi, chunki u taqiplanadi. Buning o’rniga, foyda va zararni taqsimlash, ijara va sotish kabi muqobil moliyalashtirish modellari qo’llaniladi. Islomiy moliyadan ko‘zlangan maqsad odamlarga o’z xo‘jalik faoliyatini islom tamoyillari asosida amalga oshirish va jamiyat farovonligini oshirishdan iborat. Islomiy moliya odamlarni daromad va xarajatlarini belgilashda halol va harom chegaralariga e’tibor berishga undaydi. Shu bilan birga, u risklarni taqsimlash tamoyili bilan jismoniy shaxslar o’rtasida adolatli daromad taqsimotini ta’minlashga qaratilgan. Shaffoflik va ijtimoiy mas’uliyat Islom moliyasida ham muhim o’rin tutadi; Shunday qilib, xo‘jalik muomalalarining adolatli va halol amalga oshirilishi ta’milanadi. Natijada, islomiy moliya iqtisodiy adolatni ta’minlash va jamiyat farovonligini oshirish uchun salmoqli salohiyatga ega moliyaviy tizimdir. Islomiy moliyani amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha turli bahs-munozaralar mavjud bo'lsa-da, bu tizim Islom qadriyatlariga asoslangan adolatli va barqaror iqtisodiy modelni taklif qiladi. Islom moliyasi islomning iqtisodiy tamoyillari asosida o’rnatilgan moliyaviy tizim va qoidalarni anglatadi. Bu tizimda foizsiz bank faoliyati, zakot va qurbanlik kabi ibodatning iqtisodiy jihat, halol va harom tushunchalari muhim o’rin tutadi. Islom moliyasining asosiy jihat – har bir moliyalashtirish amaliyotining aktivlar bilan ta’milanganidir. Bu yerda mablag’lar ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish kabi faoliyatlarga to‘g’ridan to‘g’ri yo‘naltiriladi. Islom moliyasi ortiqcha, bo’sh pul massasining paydo bo‘lishida ishtirok yetmaydi hamda foizga asoslangan qarz munosabatlarini amalga oshirmaydi. Islom moliyasi ijtimoiy adolat, daromad taqsimoti va iqtisodiy farovonlik kabi masalalarda Islom maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Islom moliyasi islomning iqtisodiy tamoyillari asosida adolatli iqtisodiy tizim yaratish va jamiyat farovonligini oshirishni maqsad qilgan. Bu doirada foizsiz bank faoliyati, zakot va qurbanlik kabi ibodatning iqtisodiy jihat, daromad taqsimoti adolati va halol-harom tushunchalari kabi tamoyillar muhim o’rin tutadi. Islom moliyasi, Islomning ijtimoiy adolati, daromad bo'yicha va iqtisodiy tinchlik kabi maqsadlarni amalga oshirishni amalga oshiradi.. Islom moliyasi qashshoq jamoalarni kuchaytirib, ularga kichik bizneslarni boshlash, daromad olish va oxir-oqibat faqirlar devorini buzish imkoniyatini beradi.


Islomning asosiy manbai-muqaddas Qur’oni karimning har bir oyati bandalarni iymon-e’tiqodga, ezgulik va poklikka da’vat qiladi. Uning 293 ta oyati bevosita iqtisodiy tafakkurga bag’ishlangan. Bundan tashqari boshqa ko’pgina oyatlarda ham qisman iqtisodiyotga oid fikrlar berilgan.

Islom moliyasi o’zida mujasam etgan tamoyillar ichida eng assosiylari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy tenglik;
- adolat;
- mas’uliyat va majburiyat;
- mo’tadillik;
- halollik;

Islom moliyasi bu hozirgi kunda butun boshli bir zamonaviy tizim, o’z ichiga turli xil banklarni, sug’urta korxonalarini, konsalting kompaniyalarini va hokozolarni qamrab oladi. Bunday muassasalarning moliyalashtirish amaliyoti ostida savdo (mijoz talabiga ko’ra: bino qurib berish, asbob – uskunalar, tovar va xomashyo materiallar) yotadi. An’anaviy banklarning savdo amaliyoti bilan shug’ullanishi esa qonunan ta’qiqlangan. Islom moliyasi bu dunyoviy masala, undan hamma birdek foydalanishi mumkin. Muhim jihat shundaki, islomiy moliya – bu “axloqiy-ijtimoiy moliya” degani. Bu moliyada insonlar birgalikda bitta jamiyat qurishadi, boylar alohida, kambag’allar alohida bo’lib qolishmaydi.

Islom moliyasi axloqiy-ijtimoiy moliya ham hisoblanadi. Chunki kapitalistik davlatlar madaniyati individualistik madaniyat hisoblanib, shaxs xohishlari hamma narsadan ustun turadi. Islom moliyasi diqqat markazida esa jamoa turadi. Islom moliyasi ijtimoiy – axloqiy moliya deyilishining yana bir sabablaridan biri shuki – unda tijoriy va notijoriy moliyalar bor. Islom va moliyaning bog’lanishi. Islom huquqida qonun qoidalarni o’rganuvchi yo’nalish – Fiqh deb ataladi. Moliyaviy masalalarga javob beruvchi fiqh esa Fiqh al – Muamalat deb ataladi. Fiqh al – Muamalat – bu jamiyatda qanday muumuomalar bo’lsa o’sha muomalalarni hal qiladigan qonun-qoidalalar yig’indisidir.(1-rasm)




### 1-rasm. . Islomda moliyaviy qoidalar asosi

Uning bir qismi moliyaviy muamalat bo’lib, u insonlar o’rtasidagi moliyaviy aloqalarni, bir-birlari bilan savdo-sotiq, pul bilan bog’liq oldi-berdi muomalalari qamrab oladi. Moliyaviy muomalatni ham ikki guruhga bo’lishimiz mumkin:

**A. Tijoriy muomala** – bu real iqtisodiy fiqh, bunda oldi – sotdilar bo’lib o’tadi. Har qanday foyda va naf keltiradigan amaliyotlar bajariladi.

Islom moliyasida kredit berib pul topish ta’qiqlanganligi sababli, iqtisodiyot rivojiga xizmat qiluvchi bir necha alternativ instrumenrlar yaratilgan va ular orqali pul oxir oqibat real iqtisodiyotga tarqaladi. Quyida islom moliyasi asosiy muomala turlari keltirilgan:(2-rasm)



2-rasm. Islom moliyasi asosiy muomala turlari.

I. Murobaha - - bu savdoning bir ko‘rinishi. Unda aktiv sotib olinadi va sotiladi.

II. Ijara – aktiv sotib olib ikkinchi tomonga ijaraga beriladi. Bunda ijaraga beruvchi ijaraga berib foyda oladi, ijaraga oluvchi undan foydalanishdan manfaatdor bo‘ladi.

III. Istisna – yo‘q narsaga pul tikish. ( loyihani moliyalashtirish). Qurilayotgan (paydo bo‘layotgan) hali yaratilmagan aktivlarni moliyalashtirish.

IV. Salaam – qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish, ya’ni hosilni fermerdan oldindan sotib olish.

V. Musharaka – sherkchilik. Bitta g‘oya yoki ishni birgalikda moliyalashtirish. Jismoniy shaxslar va korxonalarining ishtiroy etishiga ruxsat beriladi.

VI. Muzoraba — sarmoyador o‘z mablag‘ini kelgusida biznesni rivojlantirishga sarflanishi uchun moliyaviy tashkilotga beradi. Foydani taqsimlash shartlari oldindan kelishib olinadi.


VII. Sukuk- qimmatbaho qog’ozlar, ya’ni investitsiyalar.

B.Notijoriy muomala – bunda, asosan kambag’allarga yordam beriladi. Dunyoviy jihatdan, boylik insonga tegishli hisoblanadi. Islomda esa, boylik har bir insonga vaqtincha berilgan va shu vaqtincha berilgan boylikning ham bir qismi kambag’allarning haqqi hisoblanadi. Bunday qarash, o‘z navbatida iqtisodiyotda juda katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Sababi bir tarafdan kambag’allarning ahvoli yaxshilansa boshqa tarfdan kambag’allar u pullarni bozorda ishlatadi (tovar yoki xizmatlardan foydalanadi). Shu tariqa pul yana real iqtisodga qaytadi va aylanishda davom etadi.Yoki ana’naviy moliya tizimda baland kredit reytingdagi kompaniya va korxonalar mablag’larni arzon narxlarda jalb qilishadi. Biroq oddiy jismoniy yoki kichik bizneslar uchun bank va moliya institatlari katta foizlardagi kreditlar berishadi. Ular qilayotgan daromadlari foiz to‘lash bilan tamom bo‘ladi. Umuman olganda, yangi Startuplar, kichik biznes (mikro darajadi), beva yoki ajrashgan ayollar va muhtojlarga bank kredit bermaydi.

Islomiy moliyadagi notijoriy instrumentlar orqali yuqorida muammolarni yechish mumkin.

- 1) Zakot – Har yili (bir yilda bir marta, asosan Ramazon oyida) boylarning 2,5 foizgacha bo’lgan boyligi to‘g’ridan to‘g’ri kambag’allarga beriladi.
- 2) Sadaqa –Boylar kambag’allarga sadaqa qilishadi (har oy, har hafta va h.k.). Sodda qilib aytganda, bu instrument qayta taqsimlash vazifasini bajaradi.
- 3) Qarz ul Hasan – bu kafolatlangan foizsiz qarz. Ma’lum muddatga hech qanday foizlarsiz jismoniy yoki yuridik shaxslarga beriladi.
- 4) Vaqf – makroiqtisodiy ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Bu pullarga tarixdan yo‘llar, o‘quv markazlar, karvonsaroylar qurilgan.
- 5) Takoful – bu jamoaviy bir – biriga o‘zaro yordam. Oddiy moliyadagi sug’urta kompaniyalariga o‘xshaydi.

Endi islam moliyasini iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz, Jahon islam moliya bozorlarining aktivlari umumiyligi qiymati qariyb 2,88 trillion AQSH dollarini tashkil qildi. Jahon islam moliya bozorlari uchun 2024- yilga borib 3,69 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilingan. Islom moliya sektori 15 foizdan 25 foizgacha yiliga o‘sayapti. 2020-yil yakunlariga ko‘ra, global jihatidan islom banklarining aktivlari 2 349 milliard AQSh dollariga, Sukuk 631 milliard AQSh dollariga, islom fondlarining aktivlari 178 milliard AQSh dollariga, boshqa islomiy moliya institutlarining aktivlari 154 milliard AQSh dollariga, Takoful aktivlari esa milliard AQSh dollarini tashkil etgan.(3-rasm)



3-rasm.Islomiy moliya institutlarining aktivlari miqdori (Milliard AQSH dollarida)


Islom banklari aktivlari hajmi jihatidan islom moliyasining asosiy sektoriga aylanib ulgurdi va 2021-yilda jami islom moliyasi aktivlari 4 trillion dollarga yetgan bo‘lsa, 2020 yilga nisbatan 17 foizga o’sgan. Uning taxminan 70 foizi (2.8 trillion dollar) islom banklari hissasiga to‘g’ri keldi. Bu ko‘rsatkich 2026 yilga borib 6 trillion dollargacha ko‘tarilishi kutilmoqda..

Sukuk (islomiy qimmatli qog’ozlar) esa, 2021-yilda jami 713 milliard dollarlik hajmi (14 foizlik o’sish) bilan islom moliyasi bozorining 2-yirik segmenti bo‘ldi.

Islomiy fondlar esa kattaligi jihatidan islom moliya bozorida 3-o‘rinni egallab turibdi va 2021-yilda ularning jami aktivlari hajmi 34 foizlik o’sish bilan 238 milliard dollarni tashkil qildi. . Islomiy fondlar - banklar va sukuklarga nisbatan kamroq rivojlangan bo‘lib, global islomiy fondlarning asosiy 81 foiz ulushi 3 ta davlat, ya’ni Eron, Saudiya Arabiston va Malayziyaga to‘g’ri keladi.

Boshqa islomiy moliya institutlari (fintex bilan shug’ullanuvchi kompaniyalar, investitsion firmalar, moliyaviy kompaniyalar, lizing va mikromoliya tashkilotlari shuningdek, broker va treyderlar)ning aktivlari 5 foizga – 169 milliard dollarga oshishiga erishilgan.


Takaful(islomiy sug’urta)-islom moliyasi sanoatining eng kichik sektori bo‘lib, 2021-yilda aktivlari 73 milliardni tashkil etgan.



4-rasm. Umumiy islomiy moliya aktivlarida islomiy moliya institutlarining ulushlari miqdori

Yuqoridagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, islomiy moliya instrumentlarining eng yuqori potensialga ega bo‘lgan instituti – bu islom banklaridir.

Islom banklari Xalqaro bank bozorining 6 foizdan ortiqrog’ini tashkil etmoqda. Hozirgi kunda 80 dan ziyod mamlakatlarda islomiy moliya ishlab turibdi va ularda mazkur soha uchun uchun me’yoriy-huquqiy asoslар yaratilgan. Biroq islom dunyosining 10ta mamlakatlari islom moliyasining deyarli 95 foiziga egalik qiladi. Birinchilarda Eron (29%) bilan, Saudiya Arabiston (25%), Malaziya (11%), BAA (8%), Quvayt (6%), Qatar (6%), Turkiya (2.6%), Bangladesh (2.1%), Indoneziya (2%) va Baxrain (1.8%).



5-rasm. Islomiy moliyada katta ulushga ega mamlakatlar

Eng muhim rivojlanish islom moliyasi uncha rivojlanmagan mintaqalarida ro‘y berdi. Bu esa yangi tashkil etilgan hududlarning taraqqiy etganligi bilan birga yangi bozorlarning paydo bo‘lishini taqazo etdi. Dunyo iqtisodiyotida islom bankchiligining o’sishi bo‘yicha

Tojikiston (84 %), Burkina-Faso (27 %) va Efiopiya (26 %) boshqa davlatlardan ajralib turdi. Xulosa qilib aytganda, yillar davomida islom moliyasi rivojlanib bormoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayrim mamlakatlarda islom ma’muriy va iqtisodiy tizimni ajratmaydi va diniy qoidalar asosida ishlaydi. Bu holat ba’zi tanqidlarga sabab bo’ladi, chunki din iqtisodiy masalalarda etarlicha yo’l-yo’riq bermaydi deb o’ylashadi. Bundan tashqari, dinning davlat siyosatiga aralashuvi, diniy yetakchilarning iqtisodiy qarorlarga ta’siri kabi holatlar ham tanqid qilinadi. Islomiy moliyani yanada zamonaviy va samarali boshqarish uchun uni dunyoviylik tamoyili va zamonaviy iqtisodiy tamoyillar bilan uyg’unlashtirish kerak, deb o’ylashadi. Islom moliyasi asosiy muammo va kamchiliklardan ba’zilari quyidagilar bo’lishi mumkin:

- Foizsiz moliyalashtirishning yetarli emasligi: Islomiy moliya tamoyillariga muvofiq foizsiz moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etuvchi muassasalar va mahsulotlarning yetarli emasligi Islom moliya tizimini to’liq tatbiq etishni qiyinlashtirishi mumkin.

- Halol va harom chegaralarining noaniqligi: Islomiy moliya tizimida halol va harom chegaralarining noaniqligi ayrim operatsiyalarning muvofiqligi borasida noaniqlikni keltirib chiqarishi va amalga oshirishda qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin.

- Risklarni boshqarishning yo’qligi: Islom moliya tizimida risklarni boshqarish mexanizmlarining yetarli emasligi moliyaviy barqarorlik va ishonchni zaiflashtirishi mumkin.

- Ta’lim va xabardorlikning yo’qligi: Islom moliya tizimi va tamoyillari haqida yetarlicha ta’lim va xabardorlikning yo’qligi to‘g’ri amaliyatga to’sqinlik qilishi va tushunmovchiliklarga sabab bo’lishi mumkin.

- Audit va shaffoflikning yo’qligi: Islom moliya institutlarida audit mexanizmlarining etarli emasligi ishonchlilik va oshkoraliq bilan bog’liq muammolarga olib kelishi mumkin.

Bu muammolar islom moliya tizimining rivojlanishi va kengayishiga to’sqinlik qilishi va bu sohada islohotlar zarurligini ko’rsatishi mumkin. Men fikrimcha; islom moliyasi qandayli, uni afzalliklari, imkoniyatlari haqida ko’proq tushunchalar berish va manbalari ko’paytirish ,manbalar hammaga tushunarli aniq bo’lishini ta’minlash lozim. Islom moliyasi haqida qancha ma’lumotga ega bo’lsa ,islom moliyasi ham rivojlanadi. Masalan oddiy o’zimizni bankdan kredit olsak uni foizi bor miqdori yil davomida ko’payadi. Lekin islom banklari farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, islom moliyasi xizmatlari shariat qoidalariga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o’tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom moliyasi aktivlari yildan-yilga ko’payib borayotganini ko’rishimiz mumkin. Umuman olganda, islomiy moliya xizmatlaridan foydalanish bir tomondan foydalanuvchi e’tiqodini hurmat qilish bo’lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda axloqiyem’zonlarni ushlab turishdir, uchinchi tomondan esa katta moliyaviy mablag’lar jalb qilishning bir usulidir. Islomiy moliya bu – sheriklikka, aktivlar bilan ta’minlanganlikka asoslangan, axloqiy, barqaror, ekologik va ijtimoiy mas’uliyatli moliya bo’lgani bois, uning iqtisodiyot, jamiyat, atrof-muhit uchun hech qanday tahdidiy alomatlari yo’q, aksincha, an’anaviy moliya tizimidan ko’ra shaffof va

moliyalashtirish obyekti aniq va ravshan bo’lgan moliya tizimidir. Uni rivojlantirishimiz kerak.

#### **REFERENCES:**

1. <https://worldpopulationreview.com/>
2. <https://link.springer.com/>
3. Ahmadjonov, A Abdullaev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
4. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY АНАМИЯТИ. АХБОРОТКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ ОНЛАЙН РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ, 2 (6), 794
5. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullaev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.
6. . O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.
7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.
8. M Mamadjonov, A Abdullaev, I Abdurahmonov, A Mamadaliev. (2021). CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scientificprogress, 2 (6), 1533-1537.
9. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullaev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of
10. Multidimensional Research 10 (12), 250-254.
11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.